

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'ydinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 8.08+82-14(575.1)+8.11512.133-14

**“DEVONU LUG'OTIT TURK”DA QO'LLANILGAN AYRIM MAQOLLARNING
LINGVOPOETIK TAHLILI****ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ПОСЛОВИЦ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ
В «ДЕВОНУ ЛУГОТИТ ТЮРК»****LINGUOPOETIC ANALYSIS OF SOME PROVERBS USED IN “DEVONU LUGOTIT
TURK”****O'rinboyeva E'zoxxon Komolovna¹**¹Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi**Jo'raboyeva Gulrux Solijonovna²**²Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.**Annotatsiya**

Maqolada paremik birlik hisoblangan maqollar, ularning lingvopoetik tahliliga doir nazariy fikrlar bayon qilingan. Xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan turlaridan biri maqoldir. Maqol og'zaki ijodimizning kichik janrlaridan biridir. Maqollar hajm jihatidan qisqa bo'lsa-da, fikr va mazmun keng qamrovli bo'ladi. Maqol o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janrlardan biridir. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Nutq jarayonida maqollardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Maqollarda adresatning hukm, mulohaza, pand-nasihatli fikri ixcham va aniq ifodalanadi.

Nutqda maqol va matallardan foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuvda, badiiy, tarixiy asarlarda, publitsistikada dolmiy ravishda qo'llanilib kelingan va hozirda ham bu jarayon davom etmoqda. “Devonu lug'otit turk” asarida ham bir qancha maqollar tilga olingan bo'lib, ushbu maqolada metaforik xarakterga ega bo'lgan maqollar tahlilga tortilgan. Ularning hozirgi o'zbek adabiy tilida uchraydigan variantlari keltirilgan.

Аннотация

В статье описаны пословицы, являющиеся паремическими единицами, и теоретические взгляды на их лингвопоэтический анализ. Одним из распространенных видов фольклора является пословица. Пословица – один из поджанров нашего устного творчества. Хотя пословицы невелики по длине, их мысль и содержание всеобъемлющи. Пословица по своей природе является одним из интернациональных жанров. Нет на свете народа, у которого не было бы своих пословиц. Потому что каждый народ оставляет свой жизненный опыт поколениям в виде пословиц. Важно использовать пословицы в речевом процессе. В пословицах кратко и ясно выражаются суждение, мнение, совет адресата.

Использование в речи пословиц и поговорок повышает эффективность выступления. Вот почему пословицы очень распространены и на протяжении веков непрерывно использовались в живой речи, художественных, исторических произведениях, публицистике, и этот процесс продолжается и сейчас. Ряд пословиц также упоминается в работе «Девону луготит турк», а метафорические пословицы анализируются в данной статье. Перечислены их варианты, встречающиеся в современном узбекском литературном языке.

Abstract

The article describes the proverbs that are paremic units, and the theoretical opinions on their linguopoetic analysis. One of the common types of folklore is a proverb. Proverb is one of the sub-genres of our oral creativity. Although the proverbs are short in length, the thought and content are comprehensive. Proverb is one of the international genres by its nature. There is no nation in the world that does not have its own proverbs. Because every nation leaves its life experiences to generations in the form of proverbs. It is important to use proverbs in the speech process. In proverbs, the addressee's judgment, opinion, and advice are concisely and clearly expressed.

The use of proverbs and sayings in the speech increases the effectiveness of the speech. That's why proverbs are very common and have been used continuously for centuries in live speech, artistic, historical works, journalism, and this process continues even now. A number of proverbs are also mentioned in the work “Devonu lugotit turk”, and the metaphorical proverbs are analyzed in this article. Their variants found in the current Uzbek literary language are listed.

TILSHUNOSLIK

Kalit so'zlar: *lingvopoetika, maqol, sema, metafora, konnotativ ma'no, qarama-qarshilik munosabati, yashirin (implitsit) ma'no.*

Ключевые слова: *лингвopoэтика, поcловица, сема, метафора, коннотативный cмыcл, отношение оппозиции, скрытый (имплицитный) cмыcл.*

Key words: *linguopoetics, proverb, sema, metaphor, connotative meaning, opposition relation, hidden (implicit) meaning.*

KIRISH

Ma'lumki, barcha fanlar ma'lum ma'noda o'zaro uzviy bog'liq. Tilshunoslikning adabiyotshunoslik fani bilan aloqasi natijasidagi soha lingvopoetika hisoblanadi. Til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo'lib qolmay, balki tinglovchiga ruhiy ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Bu holat tilning estetik funksiyasida namoyon bo'ladi. Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va b.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi [2; 163]. Ya'ni lingvopoetika badiiy nutqni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Badiylik har qanday asarning bosh mezon bo'lib, u tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi. Badiiy adabiyot tili oddiy til emas, balki obrazli nutqning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi tildir. "Badiiy tilda emotsionallik, serqatlamlik, obrazlilik, musiqiylik, serbo'yoqlik, ixchamlik" [3; 250] bor. Badiiy nutqda tilning serqirra imkoniyatlari yaratiladi. So'z qo'llashdagi bu xususiyat badiiy tilini san'at darajasiga ko'taradi.

Nutqda maqol va matallardan foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuvda, badiiy, tarixiy asarlarda, publitsistikada doimiy ravishda qo'llanib kelingan va hozirda ham bu jarayon davom etmoqda.

Ona tili milliy madaniyatning oynasi, uni saqlovchi xazina hamdir. Har bir xalq yashayotgan joyining tabiati, u xalqning iqtisodiy tizimi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odatini o'zida aks ettirib, to'plab, kelgusi avlodga yetkazib berish tilning milliy-madaniy mundarijasidir. Bu mundarija tilning harakatdagi birliklarida juda ham aniq namoyon bo'ladi.

Xalq tafakkuri durdonasi hisoblangan maqollar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalashi bilan qadri, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir.

Maqollarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilishda tavsifiy va qiyoslash tahlil usullaridan foydalanildi. Ya'ni tanlangan asarlarda qo'llanilgan maqollarning semik tahlil qilish va maqollarning diaxron va sinxron ko'rinishlarini o'zaro qiyoslash tadqiqotimizning asosiy metodologiyasini tashkil qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hikmatli so'zlar, maqollar – hech bir podsho e'lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir [4; 5].

Maqollarni "hayot qomusi", xalq og'zaki ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Shuningdek, maqollar o'z ijodkori bo'lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og'zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Tabiiyki, umumxalq tili – tabiiy va tarixiy taraqqiyot jarayonlari ichidagi, ammo "andavalanmagan", "randalanmagan" til [5; 29]. Maqol va matallar umumxalq tilida juda ko'p qo'llaniladi. Maqol arabcha so'z bo'lib, hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, *pand-nasihati mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli va hikmatli ibora, gap* [6; 456], degan ma'noni ifoda etadi.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar paremiologik birliklarda, xalq maqollarida, matallarida, hikmatli so'zlarda, turg'un birikmalarda, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik, mardlik, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat-ehtiroim ko'rsatish kabi fazilatlar tarannum etilgan maqollar ko'plab uchraydi. Mashhur hind masali "Kalila va Dimna", Kaykovusning "Qobusnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud

Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk", Ahmad Yassaviyning "Devoni Hikmat", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" hamda Alisher Navoiyning ko'pgina asarlarida ham maqol va matallarning o'rinli izohlanganligini ko'rish mumkin.

Yevropaning taniqli sharqshunos olimi Herman Vamberi XIX asrning ikkinchi yarmida o'lkamizga qilgan safaridan qaytgach, quyidagilarni yozgan edi: " ... Sharq qadimdan she'riyat tuyg'ulari o'lkasi bo'lib kelgan ... Shuning uchun ham o'tovda istiqomat qiluvchi kishilarda she'riyatga bo'lgan ishtiyoq Parij va Londondagi ma'lumotli jamiyat a'zolariga qarganda kuchliroq ekanligiga hech kim ajablanmasa kerak... O'rta Osiyoda bir-biriga muhabbat qo'ygan yosh oshiq-ma'shuqlar ham, ruhoniylar va oqsuyaklar ham, xullas, hamma-hamma poetik ijodiyotga bir xilda qiziqadi... Maqollarni yozma tilda ham, jonli tilda ham uchratish, yurt kazolarining saroyida ham, ko'chmanchilarning o'tovida ham eshitish mumkin ... Sahro o'g'loni bunday otalar so'zini hamma vaqt yuziga jiddiy tus kiritgan holda tinglaydi. Maqol ma'nosiga zid bo'lgan hech qanday oqilona gap, hech qanday ishoniruvchi so'z uning fikriga ta'sir qila olmaydi, uning tabiatidagi tug'ma mutassiblik hech narsaga ajdodlar va ular qoldirgan hikmatlarning donolik bilan aytilganiga, noto'g'ri aytilmaganiga astoydil, qattiq ishonchidan boshqa hech bir narsaga bunchalik kuchli tarzda namoyon bo'lmaydi" [7; 323-324].

O'zbek tilida hikmatli iboralarni umuman maqol deb atashadi [8; 5], ammo bu tushunchani ifodalash uchun o'ndan ortiq atama qo'llanadi: maqol, matal, masal, naql, hikmat, tanbeh, zarbulmasal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so'zi, donishmandlar so'zi, donolar so'zi, yaxshilar so'zi, burungilar so'zi, ulusning so'zi, avomunnos masali, hikmatli so'z va hokazo. Ilmiy adabiyotlarda maqol va matal atamalari deyarli farqlanmaydi. Hatto ba'zi manbalarda paremalarning turlari sifatida farqlangan bo'lishiga qaramay, maqol va matal terminlari izohi chalkashtirib yuborilgan o'rinlarni ham uchratish mumkin [9; 12].

Mumtoz adabiyotda *maqol* atamasi so'z, nutq, gap tushunchalarini anglatgan va maqol tushunchasini ifodalash uchun esa *masal* istilohi qo'llangan [10; 237]. Masalan, mumtoz she'riyatda maqol qo'llanayotgan matndagi *masaldurkim*, *masalkim*, *masal budur* kabi birikmalar maqol ma'nosini anglatib keladi. Gulxaniy o'zining mashhur "Zarbulmasal" asarida *masal* atamasini maqol ma'nosida qo'llaganki, tarixiy jihatdan masal istilohini maqol atamasining ekvivalenti sifatida tushunish mumkin.

XX asrda o'zbek xalqining paremiologik boyligini to'plash va nashr qildirishda anchagina yutuqlarga erishildi [11; 1976].

Maqol, matal, hikmatli so'z, idioma tarzidagi paremalarni to'plash, ularning mavqeini belgilash, o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish ham tilshunoslikning, ham adabiyotshunoslikning vazifasidir.

Tilshunoslikda maqol va matallar paremiologik birlik sifatida tadqiq qilinib, ularning grammatik jihatdan tugallangan-tugallanmaganligi, til va nutq dixotomiyasida qanday ma'no ifodalashi, boshqa frazeologik birliklardan farqli tomonlari o'rganiladi.

Adabiyotshunoslar esa ushbu birliklarni mavzu jihatdan tasniflaydilar, ijodkorning badiiy mahoratini ko'rsatuvchi poetik vositalardan biri sifatida baholaydilar. Suningdek, adabiyotshunoslikda maqol va matallar xalq og'zaki ijodining alohida janri sifatida o'rganiladi va ulardagi obrazlilik mubolag'a, o'xshatish, qiyoslash, sifatlash, jonlantirish, kichraytirish kabi badiiy-tasviriy vositalar; metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ko'chimlar; takror, ellipsis, parallel konstruksiyalar kabi sintaktik figuralar yordamida yuzaga chiqishi ta'kidlanadi.

Lingvopoetik tadqiqotda esa ana shu lisoniy asoslarda qay holatda poetik vosita sifatida baholanishi tahlilga tortiladi.

M.Qoshg'ariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli so'zlaridan juda katta qismini o'zining "Devon"iga kiritib, ularni qanday vaziyatda, qaysi mazmunda qo'llanishini arab tilida izohlagan edi. "Devonu lug'otit turk"da xalq og'zaki ijodiga mansub 300 dan ortiq she'riy parchalar, 291 ta maqol va matallar keltiriladi [12; 49].

Aytish mumkinki, maqol-matallarni tematik jihatdan tasniflashda ma'lum bir qonuniyat yo'qligi sababli ularni ko'plab temalarga ajratib o'rganish mumkin. Bundan tashqari, maqollarni badiiy tasvir vositalariga ko'ra ham guruhlash maqsadga muvofiq

TILSHUNOSLIK

bo'ladi, ya'ni qofiyasiga, o'xshatish (metafora), taqqoslash (antiteza), anafora, kinoya, piching, kesatichni ifodalashiga ko'ra ham turlarga ajratish mumkin.

So'zning yangi ma'no kasb etishiga olib keluvchi faktorlarni ikki asosiy gruppaga ajratish mumkin: 1) nolingvistik faktorlar, 2) lingvistik faktorlar.

Nom ko'chishi asosida yangi ma'no paydo bo'lishi nolingvistik faktor hisoblanadi. Bunda ma'lum narsa, belgi yoki harakatning atamasi bo'lgan so'z boshqa bir narsa, belgi yoki harakatni ham ataydigan bo'lib qoladi, ya'ni uning ham nomiga aylanadi [13; 108]. Nolingvistik faktor asosida nom ko'chishining quyidagi usullari bor: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) funksiyadoshlik.

Maqollarda tasviriy ifoda vositalaridan foydalanilganda matnning badiiy-estetik ta'sirchanlik funksiyasi ortadi. O'zbek xalq maqollari nutqda faollashganda nutq jarayonini go'zallashtiradi, obrazli ifoda tinglovchida o'ziga xos badiiy zavq paydo qiladi. Badiiy-estetik ta'sirchanlikni yuzaga chiqarishda o'xshatish, sifatlash, ritmik-sintaktik parallelizmlar, alliteratsiya, anafora, saj', giperbola, antiteza, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ko'plab vositalarning o'rni katta.

Leksik ma'no, odatda, bir predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatga ko'chirish yo'li bilan rivojlanadi. Bunday ko'chirishning tabiatini, mavqeini har bir tilning o'zidagi semantik qonuniyatlar belgilaydi.

Ko'chirishlar, asosan, quyidagilar: metafora yo'li bilan ko'chirish, metonimiya yo'li bilan ko'chirish, funksional yo'l bilan ko'chirish, sinekdoxa yo'li bilan ko'chirish [14; 56].

Maqollar asosida ko'pincha metafora turadi. Metafora – yunon. *metaphora* – ko'chirish degani va obrazli taqqoslash turi hisoblanadi. Metaforada bir predmetning belgi-xususiyatlari ikkinchi predmetga tashqi o'xshashlik asosida ko'chiriladi. Metafora asosida ma'no ko'chishi aks etgan maqollar "Devonu lug'otit turk" asarida ham kuzatiladi. Quyida ulardan bir nechtasini lingvistik va poetik jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz:

Alimchi – arslon, berimchi – sichg'an. [Qarz beruvchi – arslon, qarz oluvchi – sichqon] [1; 105] Maqol ko'chma ma'noga ega bo'lib, ramzlar orqali insonlar ijtimoiy munosabatiga ishora qilingan. Bu yerda qarz beruvchining qarz oluvchidan ustunligi arslon va sichqon leksemalari orqali ifodalangan metafora asosida yuzaga chiqqan.

Atan [o'k] ash bo'lsa, achqa az ko'runur. [Atan (axta qilingan tuya)ning yuki oziq-ovqat bo'lsa, och odamga oz ko'rinadi] [1; 105] Maqol ochko'zlik haqida bo'lib, unda ochko'z odamning sifati, ya'ni belgi-xususiyati otlashish hodisasi tufayli uning nomiga ko'chirilgan, ya'ni och odamga – ochga. Uning qanchalik to'yimasligi esa *Atan [o'k] ash bo'lsa – tuyaning yuki faqat ovqat bo'lsa* jumlasida yordamida ko'rsatib berilgan.

Erik erni yag'lig', ermagu bashi qanlig'. [Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlig'] [1; 100] Maqol mehnatsevarlik mavzusida bo'lib, unda qo'llanilgan yag'lig' leksemasi farovonlik, qanlig' leksemasi esa faqirlik kabi semalarga ega. O'zaro qarama-qarshi ma'noli bo'lgan ushbu kontekstual antonimlar –yag'lig'/qanlig' maqolda ifodalanayotgan fikr ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Ko'mush ko'nga ursa altun azaqin kelir. [Kumush quyoshga qo'nsa, oltin o'z oyog'i bilan keladi] [1; 177] Maqolda biror maqsadga erishish uchun pulni ayamalik haqida aytilgan bo'lib, bu o'rinda kumush – sarmoya, altin – foyda kabi ko'chma ma'noda qo'llangan.

Keyingi misolga e'tibor qaratamiz.

O'tug' uzg'uch birla o'chirilmas. [O'tni alanga bilan o'chirilmas][1; 187] Maqol tinchliksevarlik mazmunida bo'lib, unda keltirilayotgan o't, alanga (uzg'uch) leksemalari to'polon yoki fitna ma'nosini ifodalab kelgan. Ya'ni to'polonni to'polon bilan to'xtatib bo'lmaydi, bunday holatda sulh eng ma'qul yo'ldir, degan fikr aks ettirilgan. Maqolda ifodalangan o't, uzg'uch (olov, alanga) kabi ma'nodosh so'zlar uning poetik ta'sirini oshirishga xizmat qilgan.

Etli tirinaqli ezirmas. [Et timoqdan ayrilmas] [1; 187] Maqol qarindoshlik munosabatlari haqida bo'lib, bu yerda et leksemasi ona yoki ota, timoq leksemasi farzand semalariga ega. Maqolda et, timoq kabi bir mazmuniy uyaga kiruvchi so'zlar ishtiroki unda ifodalanayotgan mazmunni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Usuqmisha saqig' qamug' suv ko'runur. [*Chanqagan kishiga har bir sarob suv bo'lib ko'rinadi*] [1; 199]. Maqol metaforik xarakterga ega bo'lib, umid qilish, muhtojlik mazmunini ifodalagan. Ya'ni, biror narsa talabida bo'lgan kishiga har narsa umid kabi ko'rinadi, degan fikr *chanqagan kishi, suv, sarob* kabi leksemalar orqali ifodalangan.

Quruq yig'ach egilmas,

Qurmish kirish to'go'lmas. [*Quruq yog'och egilmaydi, qurigan novda bog'lanmaydi, tugilmaydi*] [1; 206] Ushbu maqolni ta'lim-tarbiya mavzusi bilan bog'lab tahlil qilish mumkin. Ya'ni farzandga tarbiya uning yoshligida – nihollik davrida berilsa, foydali bo'ladi. Ulg'ayganda aytilgan pand-nasihati foydasizdir, go'yoki daraxt ham nihol davrida egiladi, bog'lanadi, lekin katta (daraxt) bo'lgach, egsang, sinib ketadi, degan fikr maqoldagi *quruq yig'ach, qurmish* leksemalari orqali ifodalangan.

Tay atatsa, at tinur,

Og'ul erazza ata tinur. [*Toy ulg'aysa, ot tinadi*] [1; 214] Ushbu maqol ham ota-farand munosabatlarini aks ettirib, qachonki o'g'il ulg'aysa, ota dam oladi, degan mazmun at va tay leksemalari anglatayotgan ota va o'g'il semalari orqali yuzaga chiqqan. Ushbu maqol hozirgi o'zbek tilida ot o'rmini toy bosar shaklida qo'llaniladi.

Quyidagi maqolda esa xuddi shunga o'xshash bo'lgan boshqa fikr ifodalanganini ko'rish mumkin:

Kerish yag'iri o'g'ulqa qalir. [*Ot kiftining yag'iri o'g'liga meros qoladi*] [1; 350] Ya'ni har qanday ijobiy yoki salbiy jihatlari ota-onadan farzandga meros bo'lib o'tishi mumkin. Chunki kift (yelka) bo'g'imlar to'planadigan joy bo'lib, u yerdagi yag'ir tezda tuzalmaydi, shuning uchun undan saqlanish kerak. Shuningdek, inson ham yomon odatlardan tiyilishi kerak, degan mazmun maqol g'oyasini tashkil qiladi.

Qarg'a qazg'a o'tkunsu buti sinur. [*Qarg'a kuchda, uchishda o'zini g'ozga o'xshatsa, buti sinadi*] [1; 255] Maqolda qo'lidan kelmaydigan ishni bajaraman, deb foydasiz ishga qo'l uradigan kimsalar ta'riflanib, qarg'a va g'oz qush nomlari maqolda kuch jihatdan qarama-qarshilikni ifodalash uchun qo'llangan.

Nacha yitik bichak ersa o'z sabin yanumas. [*Pichoq qancha o'tkir bo'lsa ham, o'z sopini yo'nmaydi*] [1; 366] Maqol o'z vazifasini bajarolmaydigan, lekin har doim o'z g'alari ishiga aralashib yuradigan insonlar haqida bo'lib, ushbu fikr *pichoq, o'z sopini yo'nmaydi* kabi nutq birliklari yordamida ifodalangan. Ushbu maqolning hozirgi o'zbek tilida *O'ziga tuppa kesolmaydi, boshqalarga ugra kesmoqchi bo'ladi* kabi variant uchraydi.

Keyingi maqolni tahlil qilamiz:

Yar basruqi tag',

Buzun basruqi bag. [*Yeming og'irligi tog' bilan, xalqning og'irligi beklar bilan*] [1; 433] Maqol davlat boshqaruvi masalalari haqida bo'lib, yerni tog' ushlab turganidek, xalq tinchligini ham boshliqlar ta'minlaydilar, degan mazmunni ifodalagan. Bu yerda davlat boshliqlari qudrati va vazifasi jihatdan tog'ga o'xshatilganligi metaforik ma'noning yuzaga chiqishiga xizmat qilgan.

Quyidagi matnda qo'llangan maqol ham metafora asosidagi ma'no ko'chishi hisoblanib, insonlar o'rtasidagi munosabatni aks ettirgan.

To'qum yo'zo'b qudruqta bichak sima. [*Mol terisini shilib olgach, dumi bilan pichoqni sindirma*] [1; 438] Maqolda yaxshilik qilgan odamga yomonlik bilan javob qaytarma, degan mazmun ifodalangan. Ya'ni terini shilishga yordam bergan pichoqni sindirma kabi. Hozirgi o'zbek tilida ushbu maqolning tuz ichgan tuzlug'ingga tupurma yoki tuz ichgan yeringga qirq kun salom ber kabi variantlari qo'llanadi.

XULOSA

Maqollar lingvopoetik jihatdan tahlil qilganda ularning konnotativ ifoda semalariga alohida e'tibor berish alohida ahamiyatga ega. Bu semalarning badiiy mazmun ifodalashi shunchaki poetik mahorat bo'lib qolmasdan, balki ularga muayyan g'oyaviy vazifa yuklashda xususiy yashirin ma'noga, ya'ni implitsitlikka ishora qiladi. "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan metaforaga asoslangan maqollarni turkiy tillarning lisoniy va badiiy-estetik qimmatini belgilashda muhim omil sifatida baholash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Koshg'ariy M. "Devonu lug'otit turk" I jild. – Toshkent, 1960.
2. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент, 2012.
3. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент, 1980.
4. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1990.
5. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. O'zb.Mil. – Toshkent, 2009.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: "Рус тили" нашриёти, 1968.
7. Вамбери Г. Очерки Средней Азии. – Москва, 1968.
8. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент, 1981.
9. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
10. Бердақ Юсуф. Мумтоз адабий асарлар луғати. – Тошкент, 2010.
11. Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971; Бердиёров Ў., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. I қисм, – Самарқанд, 1976.
12. Абдурахмонов Ф. "Devonu lug'otit turk" асарининг ўрганилиш тарихидан.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, 6-сон. 49-б.
13. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. v.b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
14. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: "Universitet", 2006.